Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · "Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317587

Bu muammolarni bartaraf etish uchun o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, amaliyot bilan bog‘langan dars usullarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga kengroq joriy etish talab etiladi. Iqtisodiy tahlil fanini yanada samarali o‘qitish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ta’lim dasturlarini yangilash – xalqaro standartlarga mos o‘quv rejalarini ishlab chiqish va zamonaviy iqtisodiy tahlil usullarini qengaytirish;
2. Amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv – real iqtisodiy ma’lumotlarni tahlil qilish, tadbirkorlik subektlari bilan hamkorlikni kengaytirish;
3. Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish – Excel, Power BI, Python kabi dasturlar yordamida iqtisodiy tahlil usullarini o‘rgatish;
4. O‘qituvchilar malakasini oshirish – xalqaro iqtisodiy tahlil tajribasini o‘rganish uchun o‘qituvchilarni xorijiy ta’lim dasturlarida ishtirok etishini rag‘batlantirish;
5. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish – talabalarning iqtisodiy tahlil bo‘yicha tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish va amaliy loyihalarni ishlab chiqish.

Xulosa: Umuman olganda, iqtisodiy tahlil fanining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati yildan yilga ortib bormoqda. Zamonaviy iqtisodiy muhitda raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun fan bo‘yicha o‘qitish metodlarini doimiy takomillashtirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish talab etiladi. Excel, Power BI, Stata va Python kabi dasturiy vositalarni o‘rgatish, interfaol o‘qitish usullaridan foydalanish va real amaliyot bilan bog‘langan ta’lim tizimini shakllantirish fan samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximov M.Y., Mavlonov N.N., Kalandarova N.N. Iqtisodiy tahlil. (O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod-Moliya, 2020. -517b.
2. Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2022. - 588 bet.

SOTISH HAJMINI O‘SISH SUR’ATIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI MODELLASHTIRISH

Saliev Bahodir Kamilovich
TDIU dotsenti, i.f.n.

Anotatsiya: Maqolada xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning maxsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlarining sotish xajmini o‘sish sur’atiga ta’sir etuvchi ichki xo‘jalik

Published: 24.05.2025
Cite this article: Saliev Bahodir Kamilovich (2025). Sotish hajmini o‘sish sur’atiga ta’sir etuvchi omillarni modellashtirish. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317587
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

omillarini moliyaviy hisobotlari ma’lumotlariga asoslanib tuzilgan ekonometrik modelini asoslashga xarakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Buxgalteriya balansi, aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar, sotish xajmi, moliyalashtirish manbalari, moliyaviy bog‘liqlik, kapital rentabelligi

Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ustivor yo‘nalishlari orasida alohida muhim axamiyatga ega bo‘lgan masalalar qatorida ko‘rsatib o‘tilgan. Unga muvofiq “Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va uning jon boshiga ko‘rsatkichini 4 ming dollarga yetkazish” nazarda tutilgan.

Yalpi ichki mahsulot hajmini oshirsh xar bir xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatini ratsional tashkil qilish, yangi texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanish, mexnat unumdorligini oshirish va materiallardan samarali foydalanish va boshqalar evaziga mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hajmini keskin oshirishni talab qiladi.

Ma’lumki, mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish xajmini oshirish yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan omillarni alohida xolda o‘rganish, albatta muhim axamiyatga ega. Lekin ularni o‘zoro bog‘liqlikda o‘rganish va barcha ichki va tashqi omillar evaziga foydalanmayotgan imkoniyatlarni aniqlash yanada muhimroq ahamiyatga kasb etadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish imkoniyatlarini chuqur va atroflicha o‘rganishdan asosiy maqsad uning o‘sish sur’atini ob’ektiv baholashni ta’minlashdir. Bu masalani xal kilishda ho‘jalik yurituvchi sub’ektlarning buxgalteriya balansi asosiy ma’lumotlar manbai bo‘lib hisoblanadi. Chunki, unda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining moddiy asosini tashkil kiluvchi mavjud resurslari (moddiy va moliyaviy resurslari) va ularni tashkil topish manbalari aks ettiriladi. Shu nuktai nazardan iqtisodiy resurslar (xo‘jalik yurituvchi sub’ekt aktivlari - **A**) va ularni tashkil topish manbalar (o‘z –**Xs** va qarz - **M** sarmoyasi) orasidagi qat’iy deterministik bog‘lanish bo‘lib, uni quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin:

$$\mathbf{A = Xs + M ;} \qquad (1)$$

Keltirilgan balans modeliga asosan xo‘jalik yurituvchi sub’ektning resurs salohiyatini oshirish bir tomondan, mablag‘lar manbasini ko‘paytirish va, ikkinchi tomondan ular orasidagi nisbatni o‘zgatirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Balans unsurlari orasida yuqori (1) da ko‘rsatib o‘tilganday kat’iy funksional bog‘lanish mavjudligini hisobga olib, ularni o‘zgarishini – o‘sish yoki kamayish (**Δ**) sur’atini quyidagicha ifodalaymiz:

$$\Delta \mathbf{A} = \Delta \mathbf{Xs} + \Delta \mathbf{M}. \quad (2)$$

Agar xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hususiy kapitali xajmining o‘zgarishi asosan dvidend siyosati (to‘lanadigan dvidendlar va kayta investitsiyalangan foyda – $\mathbf{I_f}$ ko‘rsatkichlari nisbatiga) va aksionerlik kapitali o‘zgarishlariga bog‘liqligini hisobga olsak, u holda yuqorida keltirilgan modelni biroz o‘zgartirib,

$$\mathbf{A = Xk + I_f + M} \quad (3)$$

ko‘rinishga keltirishimiz mumkin. Bu yerda **Xk** – qayta investitsiyalangan foyda chegirilgandan keyingi xususiy kapital, ya’ni $Xk = Xs - I_f$.

Yuqorida keltirilgan modeldan ko‘rinib turibdiki, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘z faoliyatini moliyalashtirish uchun uchta manbadan foydalanishi mumkin bo‘lib, bular: **(a)** o‘z xo‘jalik faoliyatining natijasi (kayta investitsiyalangan foyda); **(b)** ustav kapitalaini ko‘payishi (qo‘shimcha aksiyalar chiqarish, pay va badallar kiritish); **(v)** chetdan jalb kilingan mablag‘lar (bank krediti olish, obligatsiya chiqarish va x.k).

Moliyalashtirishning asosiy manbalari sifatida qaralayotgan va yuqorida sanab o‘tilgan manbalarini qaysi biri afzal va qaysi biri kamroq jozibadorligi ko‘pchilikka ma’lum. Bizning maksadmiz ularni baholash emas, balki ular o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘p sonli omillarni hisobga olgan holda moliyalashtirish manbalarni modellashtirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishdan iborat.

Modellashtirishning boshlang‘ich unsuri bo‘lib taxminlashtirilayotgan buxgalteriya hisobotini tuzish hisoblanadi. Buning uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq: (a) xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini nisbatan to‘liq tavsiflash imkoniyatini beradigan alohida ko‘rsatkich dinamikasidan kelib chiqib, hisobotning alohida moddalarini taxminlashtirish; (b) hisobotning xususiy moddalarining dinamikasi va o‘zoro bog‘liqligidan kelib chiqib uning alohida moddalarini taxminlashtirish.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini umumlashtiruvchi, natijaviy ko‘rsatkichlaridan biri sotish xajmi (**Q**) bo‘lib, uning o‘sishiga qarab xo‘jalik yurituvchi sub’ektning rivojlanishiga baho berish mumkin. Chunki, sotish hajmini o‘sishi, ma’lum ma’noda xo‘jalik yurituvchi sub’ekt aktivlarini proporsional o‘sishiga olib keladi. Shu nuktai nazardan, **sotish xajmini o‘sish sur’ati** (**t**) va aktivlarni o‘sish surati ($\Delta \mathbf{A}$) o‘rtasidagi o‘zoro bog‘lanishni

$$\Delta \mathbf{A} = \mathbf{A}^{*}\mathbf{t} \quad (4)$$

ko‘rinishida ifodalash mumkin.

Aktivlar o‘sishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar manbai - xususiy kapitali hisoblanadi. Xususiy kapital tarkibida esa asosiy e’tibor, qayta investitsiyalanadigan foyda ($\mathbf{I_f}$)ga qaratilishi lozim, chunki, ustav kapitalini

ko‘paytirishning hamma vaqt ham imkoni bo‘lavermaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xususiy kapitalni ko‘payishiga ta’sir etuvchi omillarni – qayta investitsiyalanadigan foyda ulushi (**d**), sotish rentabelligi (**R*x***) va sotish xajmi (**S**)ni ham hisobga olib uning o‘sishini

$$\Delta Xs = d * Rx * S (1 + t) \qquad (5)$$

ko‘rinishida tasvirlash mumkin. Demak, aktivlarni o‘sishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha mablag‘lar manbasin **(Qmm)**ni quyidagicha hisoblanishi mumkin:

$$Qmm = \Delta A - \Delta I_f = A*t - d * Rx * S (1 + t) \qquad (6)$$

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt, agarr moliyalashtirish manbalarining kat’iy tuzilmasiga ega bo‘lsa, ya’ni o‘z va qarz kapitali o‘rtasidagi nisbatlarni optimal darajasiga erishgan bo‘lsa, u ini ko‘payishi bilan qarz mablag‘lari manbalari ham proporsional oshib boradi, ya’ni moliyaviy bog‘liqlik koeffitsenti **C= M / Xs** (qat’iy nisbatda) bo‘lsa, u holda

$$\Delta M = C * \Delta Xs \qquad (7)$$

ko‘rinishga egabo‘ladi. Ushbu o‘zoro bog‘liqlikni yuqoridagi formulaga qo‘yib, uni matematik jihadan biroz o‘zgartirsak, u holda quyidagi formulaga ega bo‘lishimiz mumkin:

$$t = \frac{d*Rx}{1-d*Rx} \qquad (8)$$

Keltirilgan modeldan ko‘rinib turibdiki, xo‘jalik yurituvchi sub’ektning iqtisodiy saloxiyatini oshirish ikkita asosiy omil: xususiy kapital rentabelligi (**Rx**) va foydani kayta investitsiyalash koeffitsenti(**d**) ga bog‘lik. Agar xususiy kapital rentabelligini o‘zi sotish rentabelligi (**Rs**), resurs qaytimi (**Qa**) va moliyaviy bog‘liklik koeffitsenti (**S**) kabi omillarga bog‘liqligini hisobga olsak, u holda yukoridagi modelni kuyidagi ko‘rinishga keltirish mumkin:

$$t = \frac{d * C * Rs * Qa}{1 - d * C * Rs * Qa} \qquad (9)$$

Keltirilgan model qat’iy deterministik xarakterga ega bo‘lib, u maxsulot xajmini o‘sish sur’ati orkali ifodalanuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektning iqtisodiy saloxiyati va uni belgilovchi omillar o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘zida aks ettiradi. Bu omillar xo‘jalik yurituvchi sub’ekt moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini turli tomonlarini – ishlab chikarish (resurs kaytimi), moliyaviy (mablag‘lar manbalari), mulkdorlar va xo‘jalik yurituvchi sub’ekt raxbar xodimlari orasidagi munasabat (dvidend siyosati) va xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyati samaradorligi (sotish rentabelligi) kabilarni tavsiflash imkoniyatlari beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вёльтье Йёрг. Коллекция формул для анализа экономики предприятия. М., Финансы и статистика», 2010
2. Савиных В.Н. Математическое моделирование производственного и финансового менеджмента / В.Н. Савиных. - М.: КноРус, 2018. - 256 с.

IQTISODIY O‘SISH OMILLARINING EKONOMETRIK MODELLARINI QIYOSIY TAHLILI

Saliev Bahodir Kamilovich
TDIU dotsenti, i.f.n.
Isroiljonov Nurmuxammadbek Sherzodbek o‘g‘li
TDIU AF “Iqtisodiyot” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada milliy iqtisodiyotning o‘sishining suratlari barqarorligini ta’minlovchi va unga ta’sir etuvchi turli omillarni hisobga oluvchi ekonometrik modelini qiyosiy tahlili beriladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘sish, omil, investitsiya, ekonometrik model, kapital qaytimi,

Mamlakatimiz iqtisodiyoti taraqqiyotining har bir bosqichida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uning asosiy ustivor yo‘nalishlaridan biri qilib belgilab kelinadi. Bu esa iqtisodiyotimizning barcha sohalarini mutonosib rivojlantirish va ishlab chiqaruvchi kuchlardan samarali foydalanish bilan bog‘liq. Bu masalani hal qilish, bir tomondan uning manbalarini chuqur, atroflicha o‘rganishni, ikkinchi tomondan, esa uning darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi juda ko‘p turdagi ob’ektiv va su’ektiv omillarni hisobga olishni takazo kiladi.

Milliy iqtisodiyotimiz rivojlanish darajasidagi o‘zgarishlarni, ularning keltirib chiqaruvchi (ob’ektiv va sub’ektiv) sabablarni o‘rganish, ular orasidagi o‘zoro bog‘liqliklarni aniqlash va o‘lchashda, hamda samaradorlik darajasini baholashda ekonometrik modellardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Ekonometrik modellardan foydalanish, oddiy ananaviy usullardan foydalanishga nisbatan afzalligi, uning yordamida ko‘plab omillarni ta’sirini o‘lchash va baholash imkoniyati kattaligidir.

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘sish sabablarini o‘rganish, ularni baholash hamda uning istiqbolini belgilash masalasida qator tadqiqotlar o‘tkazilgan va o‘tkazilayotgan bo‘lsada, bu masala kun tartibida turgan eng asosiy, dolzarb masalalardan biri sifatida qolib kelmokda. Chunki, iqtisodiy o‘sish masalasi juda ko‘p qirrali bo‘lib, uning barcha tomonlarini to‘la hisobga olish imkoniyati chegaralangandir.